

## INGLIZ VA O‘ZBEK GERALDIKASIDA ZOOMORF RAMZLAR: LINGVOKULTUROLOGIK VA SEMANTIK TAHLIL

**Xakimova Surayyo Iskandarovna,**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek geraldikasida qo‘llanilgan zoomorf ramzlarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – hayvon obrazlari orqali ifodalangan milliy-madaniy konseptlar, xususan kuch, hokimiyat, muqaddaslik va identitet tushunchalarining mazmunini aniqlashdir. Ishda tavsifiy, qiyosiy-tipologik hamda semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada zoonimlar har ikki xalq geraldikasida muhim ramziy kod vazifasini bajarishi, biroq ularning konseptual yuklamasi tarixiy va madaniy omillar ta’sirida farqlanishi asoslab berildi. Tadqiqot geraldika tilini lingvokulturologik nuqtai nazardan talqin etishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** geraldika, zoomorf ramzlar, lingvokulturologiya, semantik tahlil, milliy identitet, madaniy konsept.

**Abstract.** This article provides a linguocultural and semantic analysis of zoomorphic symbols in English and Uzbek heraldry. The aim of the study is to identify the national and cultural concepts represented through animal imagery, particularly the notions of power, authority, sacredness, and identity. The research employs descriptive, comparative-typological, and semantic analysis methods. The findings demonstrate that zoomorphic symbols function as significant cultural codes in both heraldic traditions; however, their conceptual meanings differ due to historical and cultural factors. The study contributes to a deeper linguocultural interpretation of heraldic symbols within English and Uzbek contexts.

**Keywords:** heraldry, zoomorphic symbols, linguoculturology, semantic analysis, national identity, cultural concept.

**Аннотация.** В данной статье представлен лингвокультурологический и семантический анализ зооморфных символов в английской и узбекской геральдике. Цель исследования — выявить национально-культурные концепты, репрезентируемые через образы животных, в частности понятия силы, власти, сакральности и идентичности. В работе использованы описательный, сравнительно-типологический и семантический методы анализа. Результаты показывают, что зооморфные символы выступают важными культурными кодами в обеих геральдических традициях, однако их концептуальное содержание формируется под влиянием исторических и культурных факторов. Исследование способствует более глубокому осмыслению геральдических образов в лингвокультурологическом аспекте.

**Ключевые слова:** геральдика, зооморфные символы, лингвокультурология, семантический анализ, национальная идентичность, культурный концепт.

**Kirish.** Geraldika – lotincha *heraldus* so‘zidan olingan bo‘lib, jarchi, xabarchi; da‘vatchi ma’nosini beradi hamda gerblarning kelib chiqishi va unidagi ramziylikni o‘rganadi. Gerblarning shakllanishi antik davrga borib tarqaladi, ularni yasovchilar “amoristlar” deb nomlangan hamda biror bir mamlakat yoki hududning siyosiy va tarixiy g‘oyalar majmuasini, o‘ziga xos diniy, tabiiy va xo‘jalik xususiyatlarini ifodalovchi ramziy belgi sanalgan. Lekin uning alohida soha, ya’ni tarixning yordamchi sohasi sifatida rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelgan [1.237]. Ma’lumki, har bir davlat gerbi shakli, hajmi va undagi elementlari bilan farq qiladi. Bu esa gerblarni tahlil qilishda

lingvokulturologik tadqiq muhimligini ko'rsatadi, chunki har bir gerbda milliy-madaniy tafakkur, tarix yashiringan.

Zamonaviy tilshunoslikda gerblar tasvirini o'qish uchun geraldika tili sohasi rivojlanmoqda. D.Bahranova geraldikada tasvirlangan hayvon va o'simliklar "bestiariy (lotincha, bestia-hayvon) va gerbariy (lotincha herba – o't-o'simlik)"lar sifatida tadqiq etilib, har bir xalq tomonidan yaratilgan hayvonlar va o'simliklar haqidagi haqiqatlar, afsonalar, uydirmalar, ma'lum ma'noda o'sha xalq totemizmi bilan, qolaversa, mifologik va folklor manzarasi bilan bog'likligini ta'kidlaydi [2.113]. Shunga ko'ra, hayvonot va nabodot olami turli etnoslar lisonida xalqning fikrlash nuqtayi nazariga ko'ra umumiy va xususiy shakllanadi. Masalan, burgut ba'zi mamlakatlar uchun kuch-qudrat, g'urur ramzi sifatida qadrlansa, ba'zi xalqlar uning yirtqich va qonxo'r qush sifatida tasvirlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Zoomorf ramzlar va geraldika masalasi turli fan yo'nalishlari, xususan, lingvistika, madaniyatshunoslik va tarix doirasida keng o'rganilgan. Geraldika nazariyasi va uning tarixiy shakllanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar gerblarning nafaqat identifikatsion belgi, balki muayyan xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi murakkab semiotik tizim ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlarda geraldik tasvirlar orqali tarixiy jarayonlar va hokimiyat ramzlari aks etishi alohida ta'kidlanadi. Lingvokulturologik yondashuv doirasida V. N. Teliya tomonidan ilgari surilgan qarashlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Olim frazeologik birliklar va ramziy tizimlarni milliy madaniyatning ifodasi sifatida talqin etib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini ochib beradi [10]. Bu yondashuv zoomorf obrazlarning til va tafakkurdagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zoonimlarning lingvokulturologik mohiyati ularning konnotativ mazmunida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hayvon nomlari nafaqat predmetni nomlash, balki ijtimoiy baholash, hissiy munosabat va madaniy stereotiplarni ifodalash vazifasini ham bajaradi [3]. Shu bois zoonimlar semantik jihatdan ko'p qatlamli birliklar hisoblanib, ularning ma'nosi kontekstga qarab ijobiy yoki salbiy tus olishi mumkin. Zoonimlar metaforik va ramziy birlik sifatida insonning hayvonot olamiga oid kuzatuvlari asosida shakllanib, milliy-madaniy model sifatida xizmat qiladi [5]. Ayniqsa, bunday birliklar orqali inson xarakteri, xulq-atvori va ijtimoiy mavqei ifodalanadi.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar Sh. Safarov, N. Mahmudov, Sh. Rahmatullayev kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ular til birliklarining milliy-madaniy mazmunini ochib berishda muhim nazariy asos yaratgan. D. K. Baxronova olam manzarasining milliy-madaniy kategoriyalanishini o'rganar ekan, hayvon va o'simlik obrazlarining mifologiya, folklor va totemistik qarashlar bilan bog'liqligini asoslab beradi. Bu esa zoomorf ramzlarning lingvokulturologik mohiyatini ochishda muhim manba hisoblanadi.

Ushbu ilmiy qarashlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, zoonimlar va zoomorf ramzlar nafaqat til birliklari sifatida, balki milliy-madaniy ong, tarixiy xotira va mentalitetni ifodalovchi murakkab lingvokulturologik tizim elementi sifatida namoyon bo'ladi. Ular geraldik tizimda ham muhim semiotik yuklamaga ega bo'lib, har bir ramz ortida muayyan xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashi mujassamlashgan.

Shu jihatdan, ingliz va o'zbek geraldikasidagi zoomorf obrazlarni qiyosiy o'rganish nafaqat ularning semantik xususiyatlarini, balki madaniy identitetni shakllantiruvchi omillarni ham ochib beradi. Bu esa geraldik tasvirlarning lingvokulturologik tahlili zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda ingliz va o'zbek geraldikasiga xos hayvon ramzlari qiyosiy tahlil metodi, deskriptiv va semantik tahlil usullari hamda lingvokulturologik usullar yordamida tahlil qilindi. Tahlilda ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar, she'rlar va matnlar kabi manbalardan foydalandi.

**Tahlillar va natijalar.** Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki madaniyatda hayvon obrazlari faqat biologik nom sifatida emas, balki murakkab ramziy va konnotativ ma'noga ega bo'lgan madaniy kod sifatida faoliyat yuritadi. Ingliz geraldikasida asosiy zoomorf ramz sifatida sher (lion) obrazining ustunligi kuzatiladi. Ushbu obraz tarixiy, diniy va ijtimoiy omillar ta'sirida kuch-qudrat, hokimiyat, mardlik va oliyjanoblik konseptlarini ifodalaydi. O'zbek geraldikasida esa asosiy zoomorf ramz Humo qushi orqali ifodalanadi. Ushbu obraz baxt, tinchlik, davlat barqarorligi va farovonlik konseptlari bilan bog'liq bo'lib, milliy mifologik va folklor qarashlar asosida shakllangan. "Boshiga baxt qushi qo'nmoq" kabi iboralar Humo obrazining xalq ongida chuqur ildiz otganini ko'rsatadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Humo qushi o'zbek madaniyatida ezgulik va davlat ramzi sifatida konseptual markazga ega. Quyida ushbu geraldik zoonimlar batafsil tahlil qilinadi:

**Lion/sher-** ingliz xalida oliyjanoblik, dovyuraklik, mardlik, mustaqillik kabi ramziy ma'nolarga ega. Xususan, lug'atlarda uning denotati ma'nosidan tashqari, ma'lum bir kuch-qudratga ega shaxsni tasvirlashda ishlatilishi ham keltiriladi: **LION** - *someone who is important, successful, or powerful.*[8]. Shuningdek, ingliz tilida "lion-hearted" – dovyurak, qo'rqmas; "the lion's den" – xavfli va qo'rqinchili joy; "the lion's share"- biror bir narsaning katta ulushi, "to lionize" – kimgadir ehtirom va hurmat ko'rsatmoq kabi frazeologik birliklarning mavjudligi ushbu zoonimning ulug'vorligini ko'rsatadi. Mazkur zoonim qadimdan Angliyaning milliy ramzi sanalgan. Tadqiqotlar natijasida uning Angliya milliy ramziga aylanishiga bir necha omillar borligi aniqlandi.

1) Medieval symbolism(o'rta asrlar simvolikasi) – O'rta asrlarda sherni hukmronlik, hokimiyat ramzi sifatida ishlatish ommalashadi. Sher o'zining dovyurakligi, kuch qudrati va oliyligi bilan ajralib turadi, shu sababli aristokratlar va qirollik oilalar sherni o'zining ramzi sifatida tanlashgan.

2) Norman Influence (normanlarning ta'sirida) – 1066 yilda Angliyaning Normandiyaga qarshi jangida sher Angliyaning ramziga aylanadi. Normanidiyaning emblemasida sher tasviri tushirilgan bo'ladi va Angliya qirol va qirolichalari o'z hokimiyatining ramziga aylantirishadi.

3) The Plantagenet Dynasty (Plantagenet sulolasi) – XII – XV asrlarda Angliyada hukmronlik qilgan bo'lib, o'zlarining emblemasida uchta oltin rangli sher tasvirini tushirishgan va keyinchalik bu tasvir ingliz qirolligining ramzi bo'lib qolgan.

4) The English Crest – ingliz gerbining bir qismi sanalib, mamlakat suverinititini va millat g'ururini ifodalaydi.

5) The Lion of Judah – ushbu atama xristianlik dinining muqaddas kitobida keltirilgan bo'lib “Yahudiyaning sheri, arsloni” deb o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Ingliz xalqining ko'pchilik simvollari din bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularning sher timsolini o'zlariga ramz sifatida tanlashida ham bunga ishorat bor. Injilda qayd etilishicha, Iso Masih payg'ambarga ishlatilgan simbolik nomlardan biri “Yahudiyaning sheri” (The Lion of Judah) bo'lgan. Iso payg'ambarning sher sifatida tasvirlanishi uning qudrati, ulug'vorligi va oliyanobligi hamda yer yuzidagi butun mavjudot ustidan hukmronligiga urg'u beriladi. Shu sababli xristian dinining tarqalishiga, ushbu missiyaning himoyachisi sifatida ham Iso payg'ambarga ushbu obraz ishlatiladi[4]. *The Royal Arms of England* – Angliya qirolligining banneri sanalib, unda Angliyaning milliy hayvoni – “Barbara sheri” aks ettirilgan. O'rta asrlarda Barbara sheri – “Tower of London”dagi hayvonot bog'ida saqlangan. Shuningdek, qirollik armiyasining kuch qudratini ifodalashda ham ushbu sherdan foydalanishgan, hattoki, Angliya qiroli Richard I ga “*Lionheart*” (sheryurak) deb laqab ham berilgan, chunki u o'zining kuchli jangovar sarkardaligi va liderligi bilan nom qozongan edi. Sarkarda o'zining Fransiyaga qarshi jangida birinchilardan bo'lib uchta sher tasviri tushirilgan qalqon va sovutlardan foydalanadi[4] va keyinchalik bu Angliyaning monarxiyasining simboliga aylanadi. Hozirgi kunda ushbu milliy simbol tasvirini ingliz haykaltaroshlik, rassomchilik namunalarida va sport musoboqalarida, ayniqsa, erkaklar kriket jamoasida mamlakat identifikatsiyasini ifodalaydi.

O'zbek tilida ham “sher” zoonimi qadimdan ulug'langan. Jumladan, Samarqanddagi Sherdor madrasida tasvirlangan sher ham bir qator ramziy ma'nolarga ega, birinchidan, Samarqand hokimi Yalangtushbiy Bahodirxonning aql-zakovati, ephilligi, dovyurakligi, donologi va ziyoliligga qiyoslansa, ikkinchidan, yulduzlar burjidagi arslon ekanligiga ishorat qilinib, undagi xarakter botirlik, mardlik, dovyuraklik ramziy ma'nolari bilan bog'lansa, uchinchidan tirik mavjudotlar ichida eng aqlli va kuchli qilib insonning yaratilganligiga ishorat qilinadi[2, 118]. Xususan, Alisher Navoiy “Xamsa” asarini yaratishdan oldin bu asarni yozish uchun juda katta mashaqqat, tajriba, istedod kerakligini ta'kidlab, quyidagilarni yozadi:

*Emas oson bu maydon ichra turmoq,*

*Nizomiy panjasiga panja urmoq.*

***Kerak sher oldida sher jangi,***

*Agar sher ulmasa, bori palangi [11.309–312].*

Bu buyuk mutafakkir fikrlarini, Mir Alisher Navoiyning she'riyatda ulkan salohiyati, aql-zakovatini va oliyjonobliligini sherga qiyoslab, O'zbekiston Xalq shoiri Abdula Oripov ham ta'kidlaydi:

*Besh asrkim, nazmiy saroyni*

*Titratadi zanjirband bir sher.*

*Temur tig'i etmagan joyni*

*Qalam bilan oldi Alisher [7.298].*

Shuningdek, o'zbek tilida *sheryurak, arslonkelbat* kabi metaforik birikmalar, *O'z joyida laycha ham sher; To'g'ri bola o'stirsang, Xalq ichida sher bo'lar. Egri bola o'stirsang, Ikki ko'zi ko'r bo'lar; Yer bo'lib yashagandan, Sher bo'lib o'lgan yaxshi* kabi parameologik birliklarda ham ushbu zoomorfizmning oliyjanoblik, kuch-qudrat, mardlik kabi xislatlariga ishora qiladi.

Demak, "sher" zoonimi ikki xalq madaniyatida ham ulug'vorlik, oliyjanoblik, aql-zakovat va mardlik kabi mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Lekin uning geraldik ahamiyati ingliz madaniyatida bugungi kunda ham saqlangan. O'zbek madaniyatida geraldikada aks etgan zoonim – humo qushi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat gerbining markazida qanotlarini keng yoyib turgan Humo qush – afsonaviy qushi *baxt-soadat, xalq tinchligi, abadiy ozod va faravonligi, sofdillikni* [12] aks ettiradi. Mifologik qarashlarga ko'ra, "Kimning boshiga qo'nsa yoki soyasi tushsa, u kishi eng baxtli bo'ladi, davlat va saltanatga erishadi", deb qaralgan va bu qush *davlat qushi, baxt qushi* deb ulug'langan. Baxt qushi ma'nosi hozirgi kunda ham yashab kelmoqda. Jumladan, o'zbeklar orasida insonni omadi yurishsa, "*boshiga baxt qushi qo'nibdi*" iborasi ishlatiladi. Shoir Nosir Muhammadning ta'kidlashicha: "*Humo qushi qadimgi ertak va afsonalarda ko'p tilga olinadi. Uni jannat qushi ham deb ataganlar. Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, u Chin orollarida yashaydigan va suyaklarni yeb yuradigan bir qush bo'lib, kimning boshiga soyasi tushsa, o'sha odam davlat va saltanatga erishar ekan* [6.45]. Shoir T.To'la satrlarida ham mazkur qushning baxt, davlat qushi ekanligiga ishorat bor: *Humo qushi qo'ngan boshingda, Uchib yurdi falokat qushlar. Jihoz to'la san'at uyidan O'g'irlandi oltin, kumushlar* [9.344]. Alisher Navoiyning "Sher va Durroj" naqidasi ham humo qushining davlat egalari hamrohi bo'lishi ta'kidlangan, "*Sultonning tepasida humo qushi aylanganday, sher boshida durroj aylanib parvoz qilardi. Sher uning sayrashini eshitib, kuyida yolg'on borligini fahm qilib, der edi: – Yolg'on gapirma, yomon bo'ladi. To'g'ri odamlar oldida yolg'on qoralanadi* [11]."

Qiyosiy tahlil asosida aniqlanishicha, ingliz va o'zbek geraldikasidagi zoomorf ramzlar bir-biriga o'xshash universal semantik xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning

konseptual yuklamasi turli madaniy va tarixiy omillar bilan belgilanadi. Ingliz madaniyatida sher ko'proq kuch va hukmronlikni ifodalasa, o'zbek madaniyatida Humo qushi ko'proq baxt va tinchlik konseptiga yo'naltirilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari zoomorf ramzlarning nafaqat geraldik tizimda, balki til birliklari, frazeologizmlar va badiiy matnlarda ham faol qo'llanilishini ko'rsatdi. Bu esa ularning lingvokulturologik ahamiyatini yanada oshiradi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek geraldikasidagi zoomorf ramzlar – hayvon va qush obrazlari – milliy-madaniy va lingvokulturologik kod sifatida xizmat qiladi. Ingliz geraldikasida sher (lion) oliyanoblik, mardlik, dovyuraklik va mustaqillik timsoli bo'lib, tarixiy jarayonlar, aristokratik an'ana va xristian diniy merosi orqali milliy ramzga aylangan. O'zbek geraldikasida esa Humo qushi afsonaviy va davlat qushi sifatida baxt, tinchlik, ozodlik va farovonlikni ifodalaydi. Shuningdek, sher va Humo qushi obrazlari xalq adabiyoti, frazeologiya va mifologik e'tiqodlar orqali keng tarqalganligi namayon bo'ldi. Shu bilan, geraldik tasvirlar lingvokulturologik tahlil yordamida milliy identitet, tarixiy qadriyat va madaniy mentalitetni ochib beruvchi muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adrienne J. Pocket Encyclopedia. – London: Gricewood and Dempsey Ltd: 237 p.
2. Baxronova D.K. Olam manazarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – 254 b.
3. Ghobadighadikolaei, F. (2018). A comparative Connotative Analysis of 35 Zoonyms in English and Persian// Department of English Philology, Ivane Javakhishvili University. – Tbilisi: Georgia Science Arena Publications Specialty Journal of Humanities and Cultural Science, 2018. Vol, 3 (2): 13-19
4. Marosi R.L. The culture and history of Great Britain. –Komarom: J.Selye University, 2021. – 152 p.
5. Mintsy, E. Ye. Zoonyms: contextual meaning in literary context (based on the novel "Bless me, Ultima!" by Rudolfo Anaya) // Закарпатські філологічні студії. – Ужгород: Видавничий дім "Гельветика", 2019. – Т. 1. – Вип. 10. – С. 99-104.
6. Muhammad Nosir. Anqoni mahram qildingiz. – T.: 2004. – B.45
7. Oripov A. Tanlangan asarlar. Yetiinchii jild. She'rlar, doston, maqollar, suhbatlar. –T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 298 b.
8. Oxford English Dictionary. – London: Oxford University Press, 1989. – 22000p.
9. Turob To'la. Asarlar. 3 jildlik. – T.: G'. G'ulom nashriyoti, 1978. 344 b.
10. Телия В. Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. М. : Шк. «Яз. рус. культуры», 1996.
11. Yusuf B. Navoiy va adabiy tili masalasi// Alisher Navoiy va XXI asr. – Toshkent, 2020. – B.309-312
12. O'zbek tilining izohli lug'ati, 6 jildli. 3-jild. L-P. – T.: O'z ME, Davlat Milliy nashriyoti, 2020. – B. 409